



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dिल्фуза Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmizro	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Voriso va Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antirfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	



Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	
Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	



TALABALARNING O'QUV AMALIYOTI JARAYONIDA KASBIY MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHDA DUAL TA'LIMGA ASOSLANGAN METODIKANI TAKOMILLASHTIRISH



G'ofurov To'liqinjon

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarni o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Oliy ta'lim muassasalari hamda amaliy faoliyat subyektlari hamkorligi asosida tashkil etiladigan dual ta'lim tizimining bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quv amaliyoti jarayonida talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, kasbiy moslashuvchanligini oshirish, mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga tezkor moslasha olish qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, dual ta'lim asosida tashkil etilgan amaliyot jarayonining talabalarda mustaqil fikrlash, pedagogik muammolarni hal etish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy mobillik, dual ta'lim, o'quv amaliyoti, kasbiy kompetensiya, pedagogik tayyorgarlik, metodika, integratsiya, amaliy faoliyat, mehnat bozori, raqobatbardosh mutaxassis.

Abstract: This article highlights the issues of improving a methodology based on dual education for developing students' professional mobility during educational practice. The study analyzes the role of the dual education system, organized through cooperation between higher education institutions and practical training bases, in developing the professional competencies of future specialists. The research examines the integration of theoretical knowledge with practical activities, the development of students' professional adaptability, independent decision-making skills, and the ability to apply innovative approaches during educational practice. Furthermore, the pedagogical opportunities of dual education in forming students' professional mobility are revealed, and scientific and practical recommendations for improving the methodology are proposed.

Key words: professional mobility, dual education, educational practice, professional competence, pedagogical training, methodology, integration, practical activity, labor market, competitive specialist.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики, основанной на дуальном образовании, для развития профессиональной мобильности студентов в процессе учебной практики. Проанализированы возможности системы дуального образования, организованной на основе сотрудничества высших образовательных учреждений и баз практики, в формировании профессиональных компетенций будущих специалистов. В исследовании раскрываются вопросы интеграции теоретических знаний с практической деятельностью, развития профессиональной адаптивности студентов, способности принимать самостоятельные решения и применять инновационные подходы в процессе учебной практики. Также определены педагогические возможности дуального образования в формировании профессиональной мобильности студентов и разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию данной методики.

Ключевые слова: профессиональная мобильность, дуальное образование, учебная практика, профессиональная компетентность, педагогическая подготовка, методика, интеграция, практическая деятельность, рынок труда, конкурентоспособный специалист.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari oliy ta'lim muassasalari oldiga zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, innovatsion faoliyatga tayyor va kasbiy jihatdan moslashuvchan mutaxassislarini tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Ayniqsa, pedagogika ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalarni

uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy mehnat bozorida mutaxassisning faqatgina egallagan bilimlari emas, balki yangi sharoitlarga moslasha olish qobiliyati, kasbiy faoliyatini takomillashtirishga intilishi va innovatsion yondashuvlardan foydalanish malakasi ham muhim mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirish oliy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy mobillik mutaxassisning o'zgaruvchan kasbiy vaziyatlarga moslasha olish, yangi bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtirish, turli muammoli holatlarda samarali qaror qabul qilish hamda o'z kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish qobiliyatini ifodalaydi. Pedagog faoliyatida ushbu sifatlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchidan nafaqat fan bo'yicha bilimdonlik, balki ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash kompetensiyalarini ham talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim va ishlab chiqarish amaliyoti o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim tizimini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim jarayonining amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son¹ qarori hamda 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son² qarorida oliy ta'lim muassasalari va amaliyot bazalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, talabalarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash masalalariga alohida urg'u berilgan.

Pedagogik ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son³ qarorda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini amaliyot bilan uyg'unlashtirish maqsadida "4+2" tizimini joriy etish belgilangan. Mazkur tizim asosida talabalar haftaning to'rt kunida oliy ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni egallasa, ikki kunini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliy faoliyatga yo'naltiradi. Ushbu yondashuv nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash orqali bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Dual ta'lim tizimi ham aynan nazariy ta'lim va amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlovchi samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Dual ta'lim asosida tashkil etilgan o'quv amaliyoti talabalarni real kasbiy muhitga olib kiradi, ularda kasbiy vazifalarni bajarish tajribasini shakllantiradi hamda mehnat faoliyatiga moslashuv jarayonini tezlashtiradi. Shu sababli, talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan dual ta'lim metodikasini takomillashtirish masalasi bugungi pedagogika fanining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - o'quv amaliyoti jarayonida talabalarining kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'lim imkoniyatlarini aniqlash hamda samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- kasbiy mobillik tushunchasining pedagogik mohiyatini ochib berish;
- dual ta'limning talabalar kasbiy tayyorgarligidagi o'rnini tahlil qilish;
- o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash;
- dual ta'lim asosida kasbiy mobillikni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarining kasbiy mobilligini rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda o'quv amaliyoti jarayonini samarali tashkil etish masalalari pedagogika va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy mobillik tushunchasi shaxsning kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashuvchanligi, yangi bilim va tajribalarni egallashga tayyorligi hamda o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirish qobiliyati bilan izohlanadi.

Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Jumladan, O.A. Abdullina pedagoglarni tayyorlash jarayonida umumiy pedagogik tayyorgarlikning o'rnini va ahamiyatini tadqiq etib, bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishida nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatning uzviy bog'liqligini ta'kidlagan. Uning fikricha, pedagogik tayyorgarlik jarayoni nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki pedagogik faoliyatni mustaqil tashkil etish qobiliyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

¹ <https://lex.uz/docs/-3286194>

² <https://lex.uz/ru/docs/-3765586>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6079561>



K.A. Abulxanova-Slavskaya tadqiqotlarida shaxs faoliyati va uning kasbiy rivojlanishi masalalari yoritilgan bo'lib, mutaxassisning faol subyekt sifatida shakllanishi, o'z faoliyatini boshqarishi va rivojlantirishi kasbiy yetuklikning muhim belgisi sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuv kasbiy mobillik tushunchasining psixologik asoslarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

V.A. Slastyonin, I.F. Isaev va E.N. Shiyanovlarning pedagogika sohasidagi tadqiqotlarida bo'lajak pedagog shaxsining kasbiy sifatlari, pedagogik kompetensiyasi va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik masalalari chuqur tahlil qilingan. Olimlarning fikricha, zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki ta'lim jarayonini loyihalashtira oladigan, pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladigan va innovatsion faoliyat yurita oladigan ijodkor shaxs bo'lishi kerak.

N.V. Kuzmina o'z tadqiqotlarida pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlarini o'rganib, o'qituvchi kasbiy mahoratining shakllanishida pedagogik qobiliyatlar, kasbiy motivatsiya va o'zini o'zi rivojlantirish jarayonining muhimligini asoslab bergan. Uning qarashlari bo'lajak pedagoglarda kasbiy mobillikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslarini ishlab chiqishda muhim manba hisoblanadi.

A.K. Markova pedagog kasbiy rivojlanishini tadqiq etib, pedagogik kompetentlik, kasbiy motivatsiya va o'z faoliyatini takomillashtirishga intilish o'qituvchining professional rivojlanishida asosiy omillar ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv kasbiy mobillikni mutaxassisning uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida qarash imkonini beradi.

MDH mamlakatlari olimlari M.S. Vasilyeva, Ye.B. Vesna, M. Goldberg, I. Matyuginlarning tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik amaliyotning o'rni, amaliyot jarayonida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va pedagogik faoliyatga moslashish masalalari o'rganilgan.

P.M. Novikov va Ye.I. Rogov tadqiqotlarida pedagogik amaliyotning talabalar kasbiy rivojlanishidagi imkoniyatlari, amaliy faoliyat orqali pedagogik tajribani shakllantirish mexanizmlari ilmiy asoslangan.

Mahalliy tadqiqotchilardan D.S. Qodirova o'z ilmiy ishlarida talabalarni o'quv va pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalarini o'rgangan. Tadqiqotda talabalar tomonidan dars jarayonini tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

M.B. Ongarov tadqiqotlarida o'quv-dala amaliyoti jarayonida talabalarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqotda amaliy faoliyat jarayonida professor-o'qituvchi va talaba hamkorligi, interfaol vositalardan foydalanish hamda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

B.S. Abdullayeva pedagogning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini tadqiq etib, o'qituvchi faqatgina kasbiy bilimlarga ega bo'lishi emas, balki shaxsiy va kasbiy sifatlari majmuiga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu fikrlar pedagoglarning kasbiy mobilligini rivojlantirishda shaxsiy kompetensiyalarning ahamiyatini ko'rsatadi.

M. Ochilov pedagogik kasb etikasi va o'qituvchining axloqiy sifatlari masalasini tadqiq etib, bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish muhimligini asoslab bergan.

G.R. Sobirovaning tadqiqotlarida talabalar kasbiy layoqatini rivojlantirishda axborot-ta'limiy resurslardan foydalanish texnologiyalari yoritilgan. Ushbu tadqiqot natijalari zamonaviy raqamli vositalarning talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogika ta'limi yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, aynan o'quv amaliyoti jarayonida dual ta'lim asosida kasbiy mobillikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi yanada chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot dual ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosini hal etishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini pedagogik ta'lim jarayonini tashkil etishning kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida talabalarining o'quv amaliyoti davomida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash maqsad qilingan.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil metodi orqali pedagogika, psixologiya va kasbiy ta'limga oid ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda tadqiqot ishlari o'rganildi. Ushbu metod yordamida kasbiy mobillik, dual ta'lim va pedagogik amaliyot tushunchalarining ilmiy mazmuni ochib berildi.
2. Qiyosiy tahlil metodi asosida mahalliy va xorijiy ta'lim tajribalarida dual ta'limni tashkil etish shakllari o'rganildi hamda ularning pedagogik ta'lim tizimidagi imkoniyatlari tahlil qilindi.

3. Pedagogik kuzatuv metodi orqali o'quv amaliyoti jarayonida talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, mustaqil ishlash ko'nikmalari va amaliy vazifalarni bajarish jarayonlari kuzatildi.
4. Suhbat va so'rovnoma metodlari yordamida talabalar hamda amaliyot rahbarlarining dual ta'lim asosida tashkil etilgan amaliyot jarayoniga munosabati, mavjud muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari aniqlandi.
5. Modellashtirish metodi asosida talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi dual ta'lim metodikasining tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot obyekti sifatida pedagogika ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning o'quv amaliyoti jarayoni belgilandi.

Tadqiqot predmeti esa o'quv amaliyoti jarayonida talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirishning dual ta'limga asoslangan metodik shart-sharoitlari va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, o'quv amaliyoti jarayonida talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari aniqlanib, amaliy faoliyat va nazariy tayyorgarlik integratsiyasiga asoslangan metodik yondashuvlar taklif etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quv amaliyoti jarayonida talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirish masalasi tahlil qilinganda, mazkur jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan nazariy bilimlar va amaliy faoliyatning o'zaro integratsiyasiga bog'liq ekanligi aniqlandi. An'anaviy ta'lim jarayonida talabalar ko'pincha pedagogik faoliyatga oid nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolsa, dual ta'limga asoslangan yondashuv ushbu bilimlarni real kasbiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Dual ta'limning asosiy afzalligi shundaki, unda talaba bir vaqtning o'zida ta'lim muassasasida nazariy tayyorgarlik oladi hamda amaliyot bazalarida kasbiy faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Natijada talabalarda kasbiy vazifalarni bajarish tajribasi shakllanadi, pedagogik jarayonning real muammolari bilan tanishish imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqot natijalari asosida o'quv amaliyotini dual ta'lim asosida tashkil etish quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratishi aniqlandi:

- talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish;
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va hal etish tajribasini oshirish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish;
- mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashuvchanlikni rivojlantirish.

Dual ta'lim asosida tashkil etilgan o'quv amaliyoti jarayonida talaba faqat kuzatuvchi emas, balki faol pedagogik faoliyat subyekti sifatida ishtirok etadi. Bu esa uning kasbiy pozitsiyasini shakllantirishga, pedagogik mas'uliyatni his etishiga va kelgusidagi faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kasbiy mobillikning rivojlanishi quyidagi asosiy komponentlar orqali amalga oshadi:

1. Motivatsion komponent

Talabaning pedagogik kasbiga qiziqishi, kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyoji va o'z ustida ishlashga intilishi kasbiy mobillikning asosiy omillaridan biridir. Dual ta'lim sharoitida talaba o'z kasbining real mazmuni bilan tanishib, kasbiy faoliyatning ahamiyatini chuqurroq anglaydi.

2. Kognitiv komponent

Mazkur komponent talabaning pedagogik bilimlari, metodik tayyorgarligi va kasbiy faoliyatga oid tushunchalar tizimini o'z ichiga oladi. O'quv amaliyoti davomida talabalar nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash orqali bilimlarini mustahkamlaydi.

3. Faoliyat komponenti

Talabalarning dars tashkil etish, o'quvchilar bilan ishlash, pedagogik hujjatlarni yuritish, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishi ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.



4. Refleksiv komponent

Kasbiy faoliyat natijalarini tahlil qilish, o'z imkoniyatlarini baholash va kamchiliklarni aniqlash talabning professional rivojlanishiga yordam beradi. Refleksiya orqali talaba o'zining kelgusidagi kasbiy faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi.

Tadqiqot davomida dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish uchun quyidagi bosqichlardan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi:

Birinchi bosqich - tayyorgarlik bosqichi.

Ushbu bosqichda talabalar amaliyot maqsadi, vazifalari, bajariladigan pedagogik faoliyat turlari va baholash mezonlari bilan tanishtiriladi. Amaliyot rahbarlari tomonidan talabalarga metodik ko'rsatmalar beriladi.

Ikkinchi bosqich - amaliy faoliyat bosqichi.

Talabalar ta'lim muassasalarida pedagoglar faoliyatini kuzatadi, dars jarayonlarida ishtirok etadi, mustaqil mashg'ulotlar tashkil qiladi va pedagogik topshiriqlarni bajaradi.

Uchinchi bosqich - tahliliy-refleksiv bosqich.

Bu bosqichda talabalar amalga oshirgan faoliyatlarini tahlil qiladi, erishilgan natijalarni baholaydi va kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi. Mazkur bosqichlarning izchil amalga oshirilishi talabalarning kasbiy mobiligini rivojlantirishning samarali mexanizmini yaratadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida dual ta'lim metodikasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar belgilandi:

1. Oliy ta'lim muassasalari va amaliyot bazalari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish.
2. O'quv amaliyoti dasturlarini zamonaviy kasbiy kompetensiyalar asosida takomillashtirish.
3. Talabalarning amaliy faoliyatini baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish.
4. Pedagogik amaliyot jarayonida mentorlik tizimini rivojlantirish.
5. Raqamli ta'lim vositalari va elektron portfolio tizimidan foydalanishni kengaytirish.
6. Talabalarning mustaqil loyihalar va amaliy tadqiqotlarda ishtirokini ta'minlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarni o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlashda dual ta'limga asoslangan metodik yondashuv samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv nazariy bilimlar va amaliy tajribani integratsiyalash imkonini berib, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dual ta'lim asosida tashkil etilgan o'quv amaliyoti talabalarda kasbiy mobillikning muhim tarkibiy qismlari - moslashuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarni hal etish va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Pedagogika ta'limi yo'nalishlarida o'quv amaliyoti mazmunini dual ta'lim tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish.
2. Oliy ta'lim muassasalari hamda ta'lim tashkilotlari o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik mexanizmlarini yaratish.
3. Talabalarning amaliy faoliyatini baholashda faqat bilim darajasini emas, balki kasbiy kompetensiyalar va mobillik ko'rsatkichlarini ham hisobga olish.
4. Amaliyot jarayonida tajribali pedagoglar ishtirokida mentorlik tizimini yo'lga qo'yish.
5. Talabalarning kasbiy rivojlanishini kuzatish uchun elektron portfolio va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish.
6. O'quv amaliyoti jarayonida loyiha faoliyati, keys-stadi, muammoli ta'lim va innovatsion metodlardan foydalanish ko'lamini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, dual ta'limga asoslangan metodikani rivojlantirish orqali talabalarni nafaqat kasbiy faoliyatga tayyorlash, balki ularning zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi va yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanishiga erishish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
5. Abdullina O.A. Obshchepedagogicheskaya podgotovka uchitelya v sisteme vysshego pedagogicheskogo obrazovaniya. - Moskva: Prosveshcheniye, 1989.
6. Abulxanova-Slavskaya K.A. Deyatelnost i psixologiya lichnosti. - Moskva: Nauka, 1980.
7. Kuzmina N.V. Professionalizm pedagogicheskoy deyatelnosti. - Moskva, 1990.
8. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. - Moskva: Znaniye, 1996.
9. Slastenin V.A., Isaev I.F., Shiyanov E.N. Pedagogika. - Moskva: Akademiya, 2013.
10. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. - Toshkent: O'qituvchi, 2001.
11. Abdullayeva B.S. Pedagogik ta'lim metodologiyasi. - Toshkent, 2017.
12. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. - New York: Basic Books, 1983.
13. OECD. The Future of Education and Skills 2030. OECD Publishing, 2019.
14. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. UNESCO Publishing, 2018.
15. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. - New York: Teachers College Press, 2016.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.